

INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA BINAR ASOSLI PAREMIYALARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK TAHLILI

Jumanova Sabrina Vaydullo qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Paremiyalar, ya’ni xalq maqollari va hikmatli so‘zlar, har bir til va madaniyatda muhim semantik, axloqiy va kommunikativ funksiyalarga ega. Ular ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, axloqiy me’yor va odoblarni asrlar davomida sinchkovlik bilan saqlab, jamiyat a’zolari o‘rtasida qat’iy aloqa va muloqotni ta’minlash vositasiga aylanadi. Paremiyalarning binar asosga ega turlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Binarlik prinsipiga asoslangan paremiyalarda qarama-qarshi yoki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tushunchalar orqali jamiyatning yashash tarzi, dunyoqarashi, ruhiyati ifodalanadi. Ingliz, o‘zbek va rus tillarida bunday paremiyalar ko‘plab uchraydi va ular o‘z kommunikativ-pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi.*

Kalit so‘zlar: *binar paremiyalar, kommunikativ-pragmatik tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili, rus tili, madaniyatlararo kommunikatsiya, semantik xususiyatlar, axloqiy qadriyatlar, nutq madaniyati, xalq og‘zaki ijodi.*

Аннотация: *Паремии, то есть народные пословицы и мудрые изречения, выполняют важные семантические, моральные и коммуникативные функции в каждом языке и культуре. Они веками бережно сохраняли социальный опыт, ценности, моральные нормы и обычаи, становясь средством обеспечения прочного общения и диалога между членами общества. Особого внимания заслуживают типы паремий с бинарной основой. В паремиях, основанных на принципе бинарности, образ жизни, мировоззрение и менталитет общества выражаются через противопоставленные или взаимосвязанные понятия. Такие паремии в большом количестве встречаются в английском, узбекском и русском языках и отличаются своими коммуникативно-прагматическими особенностями.*

Ключевые слова: *бинарные паремии, коммуникативно-прагматический анализ, английский, узбекский, русский языки, межкультурная коммуникация, семантические особенности, моральные ценности, речевая культура, народное устное творчество.*

Abstract: *Premias, that is, folk proverbs and wise sayings, have important semantic, moral and communicative functions in every language and culture. They have carefully preserved social experience, values, moral norms and customs for centuries, becoming a means of ensuring firm communication and dialogue between members of society. Types of premias with a binary basis are especially noteworthy. In premias based on the principle of binary, the way of life, worldview, and mentality of society are expressed through opposing or interrelated concepts. Such premias are found in large numbers in*

English, Uzbek, and Russian, and they are distinguished by their communicative and pragmatic features.

Keywords: *binary paremias, communicative and pragmatic analysis, English, Uzbek, Russian, intercultural communication, semantic features, moral values, speech culture, folk oral art.*

Kirish. Binar asosli paremiyalarda ikki qarama-qarshi yoki bir-biriga yaqin tushunchalarning barobar qo'llanilishi orqali universallik va milliylikni uyg'un holda ko'ramiz. Ushbu paremiyalarda ko'pincha "aql-va jaholat", "yaxshi-va yomon", "kuch-va zaiflik", "tinchlik-va urush" kabi binar juftliklar asosiy semantik yadroni tashkil qiladi. Bu kabi tamoyillar har uch tilda ham muhim kommunikativ va pragmatik yuklamaga ega bo'lib, ma'no, maqsad va foydalanish kontekstiga ko'ra turli o'rinlarda ahamiyat kasb etadi. Paremiyalar og'zaki nutq madaniyati rivojida, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning mustahkamlanishida, axloqiy normalarning targ'ib etilishida muhim rol o'ynaydi. Ular qisqa, lekin chuqur ma'no va hayotiy tajribani ifodalash imkonini beradi. Pinarlik prinsipiga asoslangan paremiyalar bu jarayonda ayniqsa samarali gapirish, tushuntirish va tarbiyaviy maqsadlarda qo'llaniladi. Kommunikativ-pragmatik tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz, o'zbek va rus tillaridagi binar asosli paremiyalar nafaqat semantik jihatdan, balki ularning ishlatilish imkoniyatlari, uslubi, ijtimoiy va madaniy sohalarga kirib borishi bo'yicha ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Pragmatik nuqtai nazardan, bu paremiya turlari odatda to'g'ridan-to'g'ri vosita sifatida emas, balki bilvosita, zaminli ramziy vosita, ogohlantiruvchi, maslahat beruvchi yoki kinoya shaklida ko'proq foydalaniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ingliz tilida binar asosli paremiyalarda ko'pincha qisqa, sodda, aniq va ta'sirli iborali shakllar ustunlik qiladi. Ingliz xalqining utilitar dunyoqarashi, "hayotiy hikmat"larga asoslangan ijtimoiy ruhiyati bunday paremiyalarda o'z aksini topadi. Ular faqatgina holatni bayon qilish, ma'lumot berish emas, balki motivatsiya, tanbeh, maqtov, ogohlantirish yoki ijtimoiy ongini shakllantirish vositasi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi paremiyalarning kommunikativ aspektida qisqalik, lo'ndalik, umumiylik, zamonaviylik elementlari ustuvor rol o'ynaydi. O'zbek tilidagi binar asosli paremiyalar esa xalqning ko'p asrlik ijtimoiy-tarixiy tajribasi, axloq me'yorlari, qadriyatlariga ko'p qirrali tarzda uyg'unlashgan. Ularning kommunikativ-pragmatik ahamiyati shundan iboratki, o'zbeklarni tarbiyalash, muloqot jarayonida huquq va burchlarni anglatish, ogohlantirish yoki biror voqea-hodisaning mohiyatini qisqa va lo'nda ifodalash uchun foydalaniladi. Bunday paremiyalar juda ko'p qirrali, rang-barang, o'ziga xos poetik va aforistik vositalar orqali xalq ongida mustahkam o'rinishadi. O'zbek tilida binar asosli paremiyalar e'tiborni muayyan tafovut, bog'liqlik, bir-birini inkor qiluvchi sifatlar orqali hayot haqiqatining teran qatlamlarini ochib beradi. Ular nutqda iterativlik, bahs-munozara, fikrni kuchaytirish kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi [1].

Rus tilidagi binar asosli paremiyalar ham chuqur semantik va kommunikativ-pragmatik qatlamlarga ega. Rus xalqining hayotga, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga, axloqiy normalarga bo'lgan yondashuvi bunday paremiyalarda aniq ifodalanadi. Rus tilidagi binar asosli paremiyalar, odatda, hayotni o'rgatuvchi, tajriba asosida xulosa chiqaruvchi, ogohlantiruvchi yoki tarbiyaviy maqsadda ishlatiladi. Ular lirik, poetik, kinoyali va aforizmga moyil tasvir vositalarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Bu turdagi paremiyalar ko'pincha guruhlararo, ijtimoiy-tarixiy kontekstda keng qo'llanilib, pragmatik zalvorini oshiradi. Mazkur til guruhlarida binar asosli paremiyalarning kommunikativ-pragmatik tahlili ularning ijtimoiy nutqda qanchalik serqirra, zamonaviy va multifunksional vosita ekanligini ko'rsatadi. Bu paremiyalar ijtimoiy muhitda kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, yurt tinchligi, mehr-oqibat, halollik, fidokorlik, sabr-toqat, sadoqat, qanoat kabi axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim vositadir. Ular og'zaki va yozma nutqda hayotiy holatlarni ramziy, poetik, majoziy tarzda ifodalaydi [2].

Natijalar. Kommunikativ-pragmatik yondashuvga binoan, binar asosli paremiyalar ijtimoiy diskursda, jumladan, kundalik muloqotda, ommaviy axborot vositalari, ta'lim va tarbiya jarayonlarida, adabiyot va publitsistikada tez-tez uchraydi. Paremiyalarning so'zlovchi va tinglovchi uchun aniq va tez idrok qilinishi, qisqa va lo'nda bo'lishi, manzilli va o'ziga xos "ta'sir kuchi"ga ega ekanligi ularning kommunikativ ahamiyatini oshiradi. Har bir til o'zining tarixiy, madaniy, ijtimoiy rivojlanishidan kelib chiqib, binar asosli paremiyalarning shakllanishi va qo'llanilishida o'ziga xoslikka ega bo'ladi. Ingliz, o'zbek va rus tillarida binar asosli paremiyalarga analiz qilganda ular orasida umumiylik va farqli jihatlar bo'lishi aniqlanadi. Umumiyliklar orasiga qarama-qarshilik asosida ifodalangan muammolar, o'zaro bog'liqlik va turli axloqiy yo'nalishlar kirsas, farqliliklar til, madaniyat, milliy urf-odat, jamiyat psixologiyasi va dunyoqarashdagi tafovutlar bilan belgilanadi. Ingliz paremiyalarida individualizm, pragmatic utilitar dunyoqarash, umuman gumanistik qadriyatlar ustun. O'zbek paremiyalarida esa ijtimoiy birlik, kollektiv qadriyatlar, an'ana, udumlarni asrash, avlodlar bog'liqligi, mustahkam oila, an'anaviy muomala tarziga urg'u beriladi. Rus paremiyalarida romantik, lirik, kinoyali va didaktik ohang seziladi. Ular ko'pincha ehtiyotkorlik, do'stlik, yuksak insoniy tuyg'ular, irodaviy harakat, hayotiy sinovlarga bosqichma-bosqich qarash kabi tematik qatlamlarga ega. Binar asosli paremiyalarning kommunikativ-pragmatik funksiyalari tahlil qilinganda, ular orqali nutqdagi ma'no kengayganligi, muayyan hodisani baholash, aniqlik kiritish, ogohlantirish, tavsiya, baholash, konsensusga erishish, mafkura va ijtimoiy normalar shakllantirish kabi jarayonlar aniq ko'zga tashlanadi. Sharqona mentalitetga ega o'zbek paremiyalarida tanbeh, ogohlantirish va targ'ibot elementlari ko'proq, g'arblik, xususan, ingliz paremiyalarida esa motivatsion, o'z fikrini himoya qilish, natijaga yo'naltirish, shaxsiy mas'uliyatni oshirishga urg'u kuchli. Rus paremiyalarida esa realistik-didaktik va ba'zan kinoyali tushuncha kuchli, ularda hayotiy sinovlarni bardavomlik bilan yengib o'tish, zararlarni oldini olishga undov yanada keng ifodalanadi. Paremiyalarning

kommunikativ-pragmatik salohiyati o'z ifodasini asosan muloqot jarayonida topsa-da, zamonaviy jamiyatda ular ommaviy nutq, matbuot, ijtimoiy tarmoqlar va turli axborot manbalarida ham keng tarqalgan. Bu holatparemiyalarning kommunikativ bazaning mustahkamligi, insonlar o'rtasida ijtimoiy birlashuv va turg'unlikni saqlashda ahamiyatini oshiradi. Binar asosli paremiyalar yordamida jamiyatda axloqiy-psixologik muvozanat, ijtimoiy intizom, murosaviy ohang, chiroyli muomala, hurmat-izzat va baraka ramzi singari qadriyatlar targ'ib qilinadi [3].

Muhokama. XXI asr voqeligi, madaniy mulohazalarning o'zgarishi, globallashuv, til va madaniyatlararo muloqot intensivligi oqibatida binar asosli paremiyalarning ahamiyati yangidan-yangi kommunikativ va pragmatik qirralar kasb etmoqda. Yangi zamonaviy diskurslarda bu paremiyalar innovatsion kommunikatsiyada, ijtimoiy tarmoqlarda interaktivlik, ko'p darajali ifoda, mahalliy va global darajadagi o'ziga xos qiymat mezoni sifatida xizmat qilmoqda. Paremiyalarning til va madaniyatlararo kommunikatsiyadagi roli, alohida yondashuv bilan qaralganda, ular zamonaviy muloqot, ijtimoiy jarayonlar, xususan, madaniyatlararo muvozanat va tolerantlik, ruhiy barqarorlik, integratsiya va aksariyat insoniy qadriyatlar targ'ibotida eng ta'sirchan vositalardan biri ekanligi o'z isbotini topadi. Binar asosli paremiyalarning nazariy va amaliy o'rganilishi, ularning kommunikativ-pragmatik tahlili ko'plab dolzarb ilmiy, madaniy, ma'naviy, metodik vazifalarni hal etishda muhim o'rin tutadi. Bu tahlil o'z navbatida, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, pragmalingsvistika va madaniyatshunoslik yo'nalishlarida yangi ilmiy izlanishlar uchun boy zamin yaratadi [4].

Xulosa. Ingliz, o'zbek va rus tillarida binar asosli paremiyalarning kommunikativ-pragmatik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular jamiyatda axloq, qadriyat va ma'naviyat asoslarini mustahkamlashda, kishilar o'rtasida muloqot va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishda, og'zaki va yozma nutq estetikasi hamda ekspressivligini oshirishda bebaho vosita hisoblanadi. Bunday paremiyalar turli til va madaniyatlarda o'ziga xos semantik, stilistik, pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi, zamonaviy kommunikatsiya maydonida mustahkam o'ringa ega bo'lib, insoniyat ma'naviy hayotida ahamiyati tobora ortib bormoqda. Albatta, til va madaniy taraqqiyot davom etar ekan, binar asosli paremiyalar ham o'z evolyutsiyasini, kommunikativ va pragmatik funksiyalarini yangilab, zamon va ehtiyojlar bilan uyg'unlashib boradi. Bu esa ularning ijtimoiy-madaniy hayotimizda mangu qadriyat, axloqiy-tarbiyaviy va kommunikativ vosita sifatida qadri baland bo'lib qolishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarov, M. (2018). "O'zbek tilida paremiyalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari." *Filologiya Masalalari*, 2(82), 97–101.
2. Axmedova, G. (2019). "Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning semantik-pragmatik tahlili." *O'zbek Tili va Adabiyoti*, 4(110), 121–127.

3. Akhmetova, G. S. (2020). "Comparative analysis of English and Russian proverbs: Pragmatic aspect." *Bulletin of Science and Practice*, 6(11), 75–81.
4. Dadabayeva, D. (2020). "Binar asosli frazeologizmlarning kommunikativ-funksional imkoniyatlari." *Til va Adabiyot Ta'limi*, 1(81), 63–68.
5. Ibragimova, Z. (2021). "O'zbek va rus tillarida binar paremiyalarning lingvopragmatik xususiyatlari." *Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*, 2(86), 112–117.
6. Karimova, M. (2018). "Pragmatik aspekt v analize russkix paremiologicheskix edinits." *Filologiya va Tilshunoslik Masalalari*, 5(93), 42–48.
7. Kattabekova, G. (2021). "Ingliz, o'zbek va rus tillarida binar antonim asosli paremiyalarning lingvistik-komparativ tadqiqi." *Zamonaviy Lingvistika*, 4(2), 98–104.
8. Khujamkulova, N. (2019). "Binar asosli inglizcha paremiyalarning kommunikativ-pragmatik tahlili." *Ilm Sarchashmalari*, 1(9), 56–60.